

O‘ZBEK MAROSIM FOLKLORI**Ismoilova Hulkar****Xalqaro innovatsion universitet Filologiya va tillarni o‘qitish
yo‘nalishi talabasi****M.N.Ortiqova****Ilmiy rahbar: universitet katta o‘qituvchisi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20640903>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek marosim folklorining mazmun-mohiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Marosimlarning xalqning ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlar va an’analarini saqlash hamda avloddan-avlodga yetkazishdagi vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy, mavsumiy va umumxalq marosimlarining turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda marosim folklorining verbal tarkibi hisoblangan qo‘shiq, aytim, afsun va duolarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Maqolada marosim folklorini yig‘ish, nashr etish va ilmiy o‘rganish tarixiga ham to‘xtalib o‘tilgan hamda o‘zbek folklorshunos olimlarining ushbu soha rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Bugungi globallashuv sharoitida milliy folklor merosini asrash, raqamlashtirish va kelajak avlodga yetkazish masalalarining dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: marosim folklori, xalq og‘zaki ijodi, urf-odat, an’ana, oilaviy marosimlar, mavsumiy marosimlar, folklorshunoslik, milliy meros, ma’naviy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность узбекского обрядового фольклора, его место в общественной жизни и воспитательное значение. Анализируется роль обрядов в сохранении духовных ценностей народа, обычаев и традиций, а также в передаче культурного наследия из поколения в поколение. Освещаются виды семейных, сезонных и общенародных обрядов, их особенности, а также значение песен, заклинаний, благопожеланий и других вербальных компонентов обрядового фольклора. В статье также рассматривается история собирания, публикации и научного изучения образцов обрядового фольклора, а также вклад узбекских фольклористов в развитие данной области. Обосновывается актуальность сохранения, цифровизации и передачи национального фольклорного наследия будущим поколениям в условиях глобализации.

Ключевые слова: обрядовый фольклор, устное народное творчество, традиции, обычаи, семейные обряды, сезонные обряды, фольклористика, национальное наследие, духовные ценности.

Abstract

This article examines the essence of Uzbek ritual folklore, its role in social life, and its educational significance. The study analyzes the function of rituals in preserving national spiritual values, customs, and traditions, as well as in transmitting cultural heritage from one generation to another. Particular attention is paid to family, seasonal, and national rituals, their distinctive features, and the importance of songs, chants, incantations, blessings, and other verbal elements of ritual folklore. The article also discusses the history of collecting, publishing, and scholarly research on ritual folklore and highlights the contributions of Uzbek folklorists to the development of this field. Furthermore, the relevance of preserving, digitizing, and passing on national folklore heritage to future generations in the era of globalization is substantiated.

Keywords: ritual folklore, oral folk art, customs, traditions, family rituals, seasonal rituals, folklore studies, national heritage, spiritual values.

Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishga samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san'ati va madaniyati shakllar orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi.

Marosimlar xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari axloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan saqlashi va rivojlantirishi jihatdan yoshlarni tarbiyalashda ularning odobli axloqli bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy vaziyatda o'tadigan o'z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim qo'shiqlariga ega hayotiy tadbiridir. Marosimlar an'anaviy xarakter kasb etadi.

Har bir marosim o'ziga xos tuzilishga ega.

Marosimlar ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida undagi taraqqiyotning muntazam shakli o'zgarishlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib boradi. Shuning uchun ijtimoiy hayot talablariga javob bermaydigan ba'zi marosimlar yoki ularga xos ayrim unsurlar asta-sekin unitila boshlandi, yoxud davr mazmuniga muvofiq yangi zamonaviy marosimlar paydo bo'ladi.

Marosimlar kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ma'naviy hayot qadriyatlari sirasiga kiradi. Insonga sihat salomatlik tilash uchun uning turmushida to'kin sochinlik kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan xalq orasida qat'iyat an'anaga kirib qolgan xatti harakatlar majmuadan iborat holda tashkil etish tadbir marosim deyiladi.

Marosimni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar o'qiladigan afsun va duolar marosim folklorini tashkil etadi.

Ular marosimning verbal qismi sanaladi. Kuchli an'anaviyligi, turli-tuman ijtimoiy hodisalarini rasmiylashtirishi tabiat hodisalariga ta'sir ko'rsatishga intilishi bilan marosimlar ijtimoiy hayotda katta o'rin tutadi. Marosimning ruhiy va estetik ta'sir ko'rsatishi biror ijtimoiy akti yaratish yo'naltirish vazifalari bevosita xatti-harakati, so'z hamda sehri jodu qudratiga ega deb hisoblangan.

Marosim arab tilidagi marsum so'zidan olingan bo'lib 1-chizilgan, 2-rasm qilingan, 3-odat bo'lgan ma'nolarni anglatadi. Muayyan qoidalar asosida chizilgan, millat tomonidan rasm qilingan va odat tusiga kirgan tadbirlarni esa shartli ravishda 3turga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

1. Oilaviy marosimlar; Ular odatda biror shaxs yoki oila a'zosi hayotidagi muhim voqealar munosabati bilan amalga oshirildi. Oilaviy marosimlar ishtirokchilar qarindoshlar quda-andalar, do'stlar, tanish-bilishlar, qo'shnilar va mahalladoshlar ishtirokida o'tadi.

2. Tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlar muayyan odat, rasum-rusum bilan aloqador ma'lum darajada zarurat oqibatida tashkil qilinadigan marosimlar. Bunday marosimlar bahor, yoz, kuz, qish fasllarida uyushtiriladi. Ularda biror qishloq, mahalla, tuman aholisi qatnashadi. “Sust xotin”, “Choy momo”, “Darvishona” kabi shular jumlasiga kiritish mumkin.

3. Umumxalq bayramlari munosabati bilan tanrtanali ravishda o'tkaziladigan marosimlar. Bunday marosimlarga Mustaqillik bayrami, Navro'z bayrami, Hosil bayramlari nisbat beriladi. Umumxalq bayramlari butun mamalakat miqyosida nishonlanadi.

Marosim folklori namunalarini yozib olish va tizimlashtirish ishlari uzoq tarixga ega. Ilk davrlar marosimlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'ati turk” asarida uchraydi. Unda qadimiy mavsumiy va dafn marosimlari qo'shiqlari (yig'i) keltirilgan.

XIX-XX asr boshlari Rus va G'arb sharqshunoslari shuningdek mahalliy ma'rifatparvarlar tomonidan ilk bor to'plash ishlari boshlandi.

XX asrning O'zbekiston fanlar akademiyasi olimlar va hududiy oliy ta'lim muassalari tomonidan maxsus folklor ekspeditsiyalari tashkil etildi. O'zbek folklorshunosligida marosim janrlari tasniflanib, ularning genezisi va badiiyati o'rganiladi. Taniqli folklorshunos olimlarimiz Hodi Zaripov, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Bahodir Sarimsoqov kabi olimlar marosim qo'shiqlarining janriy xususiyatlari va funksional vazifalarni chuqur tadqiq etishgan.

Bulardan Hodi Zaripov o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini shunchaki yig'ib qolmay, ularni janrlar bo'yicha tasniflagan va marosim qo'shiqlari genezisini fanda birinchilardan bo'lib yoritib bergan. Olim o'zbek folklori, jumldan, marosim folklori namunalarini yig'ishda bevosita dala tadqiqotlariga tayangan. Etnografik tadqiqotlar 1930- yillarda O'zbekiston Madaniy qurilish ilmiy tadqiqot instituti etnografiya sho'basida ishlab, yurtimizning turli hududlaridan oilaviy va mavsumiy marosim qo'shiqlarini yozib olgan. Baxshilar repertuari xalq baxshilari va ijodkorlaridan faqat dostonlarni emas, balki to'y marosimlarda aytiladigan maxsus folklor matnlarini ham jamlagan.

O'zbek marosim folklorining xalq ma'naviy madaniyati milliy o'zlikni anglash hamda tarixiy xotirasini saqlashdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Marosim folklori namunalarini to'plashning tarixiy bosqichlari, nashr etilish jarayonlari va soha rivojiga hissa qo'shgan folklorshunos olimlarning nazariy qarashlari umumlashtirilgan. Bugungi globallashuv davrida milliy merosni raqamlashtirish va kelajak avlodga yetkazishning dolzarb masalasi edi.